NAFING AGAR XALQQA BESHAKDURUR,
BALKI, BU NAF O'ZUNGA KO'PRAKDURUR.
ALISHER NAVOIY.



Ta'lim tizimida

# PROFESSIONAL TA'LIMNING O'RNI

Professional ta'lim muassasalari uchun ahamiyatli innovatsion jarayonlarning barchasi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni o'zlashtirgan, ijodkor, pedagogik faoliyatda shaxsiy uslubga ega bo'lgan kasbiy mahoratli kadrlarni tayyorlashni ko'zda tutadi.

Hozirgi davrda o'quv amaliyotini rivojlantirishning ikki yo'nalishi mavjud: – an'anaviy va innovatsion.

An'anaviyda fanlar keragidan ortiq, juda ilmiy va o'quvchilar uchun zerikarli axborot bilan to'ldirilgan. O'quvchilarni o'qitish bilim, ko'nikma va malakalarni egallash hamda o'quv-pedagogik masalalarni namunaviy usullarda yechishga olib keladi. Bunday amaliyotning maqsadi o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarining kelajakda rivojlantirilishidan iborat. O'quvchi topshiriqni bajarib, pedagog muhandisdan o'rnak, yaxshi shakllardan andoza oladi. Bunday yondashuvda o'quv amaliyotining o'zi pedagog-muhandisning ham professional faoliyatini shakllantiradi. Professional ta'limda o'quvchilar o'quv amaliyotiga yondashuvni amalga oshirish pedagog-muhandislarning metodik tayyorgarligi mazmunini qayta ko'rib chiqilishini talab qildi. Yangi ta'lim standartini joriy qilish bugungi kunda ular oldiga qo'yilgan o'quv amaliyotining zamonaviy shartlari, talablari, tashkil qilish tamoyillari va g'oyalarini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Innovatsion ta'lim strategiyasi o'quv amaliyoti jarayonini shunday tizimli tashkil etilishini nazarda tutadiki, bunda pedagog-muhandis yetakchi o'rinda turadi, ammo, ayni paytda uning o'rni o'quvchiga va o'ziga bo'lgan munosabatga ko'ra o'zgaradi. U faqatgina bilimlarni tarqatuvchi va yetkazib beruvchi vazifasida bo'lmay, balki o'quvchining rivojlanishi va shaxsiy shakllanishiga xizmat qiladi.



**Xoshim AXMEDOV,**
**Paxtakor Pedagogika kolleji direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari.**

Innovatsion ta'limning o'ziga xosligi egallanadigan bilim olish va uni egallashni tashkil qilish usullari o'zgarishida ko'zga tashlanadi. Yangi muammolarni hal etish (integratsiya, individuallashtirish, axborotlashtirish kabi) sharoitida loyihaviy-ijodkorlik o'quv amaliyoti tizimiga o'tish kuzatiladi. O'quv amaliyotini loyihalashtirish-rejalashtirish, taxmin qilish, ijodkorlik, asoslash va tushuntirib berish, bajarish va rasmiylashtirish ko'nikmalaridan foydalanishning umumiy shakli hisoblanadi.

Hozirgi kunda o'quv amaliyotining integrallashgan loyihaviy-ijodkorlik modeli ishlanmasi kiritilgan. Loyihalashda pedagog-muhandislar ishtirok etishi nazarda tutiladi. Yangi tizimda bilim, ko'nikma va malaka ta'lim mazmuni emas, balki o'quvchi shaxsiyatini rivojlantirish omili sifatida ko'rib chiqiladi. Bu qatorda ma'lum bir bilimlarni egallash barcha narsani bilishning ijodiy boshlanishi sifatida talqin etiladi. Bu maqsad loyihaviy ijodiy yondashuvga yaqinlashishga olib keladi. Bu holda birinchi o'ringa loyihalash jarayonlari, modellashtirish, konstruksiyalash kabilar o'tadi.

**XULOSA**

O'quv amaliyotini tashkil etishda zamonaviy insonparvarlik yondashuvi quyidagi munosabatlarga asoslanadi: O'quv amaliyoti rahbarlarining yagona asosiy maqsadi bo'lajak mutaxassislarni shaxsiy ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat bo'ladi. Bu masalani hal etishda o'quv amaliyoti mazmuni va tashkil etilishining individuallashtirilishi (o'quvchilar tomonidan ularning kasbiy yo'nalganlik, umumta'lim va kasbiy tayyorgarlik, shaxsiy xususiyatlar, ish obyekti - tadqiq qilinuvchi loyihani erkin tanlashni e'tiborga olgan holda taklif etilgan loyiha topshiriqlarining variativligi) hamda o'quv amaliyotini tashkil etishda o'quvchi mustaqilligi va faolligini kuchaytirish nazarda tutiladi. O'quv amaliyoti ta'lim berish va rivojlantirish xarakterini oladi.Uni tashkil qilish va o'tkazishda pedagog-muhandislar birinchidan, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil qilishda o'quvchining amaliy ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun sharoit yaratish kabi amaliy vazifalarni hal etadi. Ikkinchidan, pedagogik, psixologik va maxsus (kasbiy, metodik) bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish hamda yangilarini egallash masalalari hal etiladi. Uchinchidan, o'quv amaliyotining vazifasi o'quvchining shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish, uning pedagogik kompetentligini shakllantirish hisoblanadi. O'quv amaliyoti tarbiyalovchi xarakterga ega. Professional ta'limning tarbiyaviy ta'siriga, uning pedagogik jamoasi ta'siri ham qo'shiladi. Jamoa a'zosi sifatida o'quvchi ham pedagog-muhandisning pedagogik faoliyatini barcha ko'rinishlari va funksiyasini bajaradi. Ammo, bu davrda u o'zining innovatsion izlanishlarini olib boruvchi o'quvchi hisoblanadi. O'quvchi o'quv amaliyoti davrida doimiy va oldindan tadqiqot loyihalarini bajarish uchun tayyor bo'lishlari kerak. Bu tayyorgarlik barcha bosqichlarda o'zlashtiriladi, o'qish mobaynida o'quvchilar bilan amaliy ishlash va amaliyot sharoitida o'zining o'quv faoliyati innovatsion uslubiga ham tayyor bo'lishi kerak.

Mehr kutubxonasi

# KITOB O'QIB, QALB UYIN MUNAVVAR AYLANG

Bilamizki, kundalik turushimizda har qanday muammoga ilm orqali yechim topish mumkin.

Shuningdek, mutolaa, u xoh gazeta, xoh jurnal bo'lsin, asabiylashishni kamaytiruvchi eng qulay usullardan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, bu borada kitobga teng keladigan yordamchi yo'q. U inson qalbiga xotirjamlik, osoyishtalik bag'ishlaydi, kundalik tashvishlardan bir oz chalg'ish imkonini beradi. Kitob o'qish orqali aqliy salohiyat kuchayib, inson tasavvuri boyiydi. Bu maroqli mashg'ulot salomatlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Buni yaxshi anglagan tuman axborot-kutubxona markazining "Ko'chma kutubxona" bo'limi mutaxasslari keksa yoshqismiga aylantirgan, bo'sh vaqtini sermazmun o'tkazishga odatlangan yoshi ulug' nuroniylarimiz bilan dildan suhbatlar qurib, kitoblar haqida qiziqarli savol-javoblar tashkil etilganligi ularning qalbiga yanada ko'tarinki kayfiyat bag'ishlayapti.

Darhaqiqat, keksalar - uyimizning ko'rki, qalbimizni munavvar qilib turguvchi chiroq, beminnat duogo'yimiz, pand-nasihatlari bilan umrimizni yoritguvchi quyosh, oqilona maslahatlari bilan yosh avlodga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi yo'lchi yulduzdir. Ularni doimo ardoqlab,e'zozlash esa bizning oliy burchimizdir. Aytish joizki, kitob mutoalaasini o'zining kundalik odatiga aylantirgan yosh-u keksa hamyurtlarimiz uchun kutubxonamiz eshiklari doimo ochiq.

Darhaqiqat, "Mehr kutubxonasi" ijti-





dagi otaxon-u onaxonlar hamda imkoniyati cheklangan kitobsevar hamyurtlarimiz bilan mutnazam aloqalarni yo'lga qo'yganlar. Buning natijasi o'laroq, keksa kitobsevarlarga adabiyotimizning eng sara namunalari uzluksiz yetkazib berilayapti. Ayniqsa, xodimlarimiz tomonidan kitob mutoalaasini kundalik hayotining bir

moiy loyihasi doirasida mamlakatimizdagi "Mehribonlik", "Qariyalar" uylari va Muruvvat mussasalariga 3500 dan ortiq nusxadagi kitoblar beg'araz hadya etilgani ham diqqatga sazovordir.

**Moxinur MAMIROVA,**
**Axborot-kutubxona markazi mutaxassisi.**

Yangi tizim

# "E-HUQUQSHUNOS" ELEKTRON TIZIMI – BEG'ARAZ YORDAMCHI



Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5168-sonli Qarori va qaror bilan tasdiqlangan Nizomning 12-bandida markazlar tomonidan yuridik xizmatlar ko'rsatilishi belgilangan tashkilotlar tomonidan Markazlar bilan kelishilmagan holda qabul qilingan yuridik tusdagi hujjatlar yuridik kuchga ega emas hamda ular qabul qilingan kundan e'tiboran hech qanday huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmasligi ko'rsatilgan.

Mazkur qarorga asosan ijroga yo'naltiriladigan buyruqlar va boshqa yuridik tusdagi hujjatlar "E-HUQUQSHUNOS" elektron tizimi orqali Adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi xodimlari tomonidan mamlakatimizda mavjud qonunlar doirasida xulosalanadigan bo'ldi.

Dastlab "E-HUQUQSHUNOS" elektron tizimi orqali kadrlarni ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish, rag'batlantirish, moddiy yordam berish, ustama haq belgilash, o'quvchilarni maktab hisobiga qabul qilish, mehnat shartnomalari, kitob shartnomasi, ta'tilga chiqarish, qo'yingki ijro intizomiga taalluqli barcha buyruqlarni rasmiylashtirish tizim bilan ishlaydigan kadrlar bo'yicha menedjerlar uchun bir qancha qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Ana shunday muammoli vaziyatlarda tuman Adliya bo'limi boshlig'i, III-darajali Adliya maslahatchisi X.Kushmatov va yuridik xizmat ko'rsatish markazi xodimlari Farrux Mirzayev, Voxidjon Qodirov va Sardorjon Majitovlar tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli barcha tashkilot kadrlari ishtirokida bir necha marta "E-HUQUQSHUNOS" elektron tizimi orqali hujjatlarni rasmiylashtirish yuzasidan o'quv- seminarlari tashkil etishdi. Shu bilan birga "Huquqiy monitoring o'tkazishdagi qoidabuzarliklarni bartaraf etish" bo'yicha ta'lim muassasalariga tashrif buyurib, qabul qilingan buyruqlar va yuridik tusdagi hujjatlarni monitoring qilish orqali kadrlar ish faoliyatidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga erishdilar.

"E-HUQUQSHUNOS" elektron tizimi gruppasi orqali xodimlar tomonidan yo'llanayotgan barcha savollarga o'zlarining huquqiy bilimlari, maslahatlari va yordamlari bilan yaqindan ko'maklashib kelayotgan, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, huquqiy savodxonligini rivojlantirishda astoydil xizmat qilayotgan tuman Adliya bo'limining yuridik xizmat ko'rsatish markazi xodimlariga chuqur minnatdorchilik bildiramiz.

**Zulayxo ALIYEVA,**
**5-sonli umumta'lim maktabining xodimlar bo'yicha menedjeri.**